



UDK:811.512

Madina MUHAMMADIYEVA,

Tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: muhammadiyevamadina495@gmail.com, ORCID ID:0009-0002-0384-0155

ToshDO'TAU professori B.Abdushukurov taqrizi asosida

“SHUM BOLA” QISSASIDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARINING LEKSEK-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Shum bola qissasidagi oziq-ovqat nomlari leksik-semantik jihatdan tadqiqot etilgan. Tadqiqot davomida gastronomik leksikaning nazariy asoslari yoritilib, oziq-ovqat leksemalarining semantik maydoni, leksik-semantik guruhlar hamda funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Asarda qo'llangan “mosh”, “moshxo'rda”, “qurt”, “chalpak”, “qovoq” kabi leksemalar lekseksimantik tahlil qilindi. Shuningdek, oziq-ovqat nomlarining qahramon xarakterini yaratish, ijtimoiy muhitni tasvirlash va milliy koloritni ifodalashdagi o'rni ilmiy asosda izohlandi. Tadqiqot natijasida gastronomik leksika badiiy matnda nafaqat maishiy birlik, balki xalqning tarixiy-madaniy tafakkurini aks ettiruvchi semantik va funksional tizim sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat leksikasi, gastronomik leksika, leksik-semantik tahlil, badiiy matn, semantik maydon, Shum bola.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАИМЕНОВАНИЙ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В ПОВЕСТИ SHUM BOLA

Аннотация

В данной статье лексико-семантически исследуются наименования продуктов питания в повести Shum bola. В ходе исследования освещаются теоретические основы гастрономической лексики, анализируются семантическое поле, лексико-семантические группы и функциональные особенности пищевых лексем. В произведении были лексико-семантически проанализированы такие лексемы, как «мош», «мошхурда», «курт», «чалпак», «ковок». Кроме того, научно обоснована роль наименований продуктов питания в создании характера персонажей, изображении социальной среды и передаче национального колорита. В результате исследования установлено, что гастрономическая лексика в художественном тексте выступает не только как средство обозначения бытовых реалий, но и как семантическая и функциональная система, отражающая историко-культурное мировоззрение народа.

Ключевые слова: Гастрономическая лексика, пищевая лексика, лексико-семантический анализ, художественный текст, семантическое поле, Shum bola.

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF FOOD NAMES IN THE NOVELLA SHUM BOLA

Annotation

This article presents a lexical-semantic analysis of food names used in the novella Shum bola. During the research, the theoretical foundations of gastronomic vocabulary were examined, and the semantic field, lexical-semantic groups, and functional features of food-related lexemes were analyzed. The lexemes such as “mosh”, “moshxo'rda”, “qurt”, “chalpak,” and “qovoq” used in the work were subjected to lexical-semantic analysis. Furthermore, the role of food names in character creation, depiction of the social environment, and expression of national identity and cultural color was scientifically explained. The results of the study demonstrate that gastronomic vocabulary in a literary text functions not only as a means of representing everyday realities, but also as a semantic and functional system reflecting the historical and cultural worldview of the people.

Key words: Gastronomic vocabulary, food lexicon, lexical-semantic analysis, literary text, semantic field, Shum bola.

Kirish. Oziq-ovqat nomlari tilning eng qadimiy va faol leksik qatlamlaridan biri bo'lib, ular xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati, turmush tarzi hamda milliy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Shu sababli gastronomik leksikani o'rganish zamonaviy tilshunoslikda nafaqat leksikologik, balki semantik, etnolingvistik va lingvokulturologik jihatdan ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Oziq-ovqat nomlari insonning kundalik hayoti bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ular til tizimida keng semantik maydonni hosil qiladi hamda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlarini o'zida aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili. Turkologiya va o'zbek tilshunosligida turkiy tillar leksikasini mavzuiy guruhlariga bo'lib tahlil qilish borasida E.Fozilov, F.Isxakov, I.Ismoilov, S.Nominxanov, D.Bozorova, B.Bafoyev, E.Begmatov, I.Nosirov, H.Dadaboyev, M.Abdulxayrov, Z.Xolmonova singari turkolog va tilshunoslar tomonidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan[1]. Aynan oziq-ovqat mahsulotlari

nomlarining lug'aviy-mavzuiy guruhlarini rus tilshunoslaridan O.L. Bolotayeva[12], T.I. Mitrichova[6], O.G.Savelyeva[8], A.R.Shxumishxova[10], o'zbek tilshunoslaridan N.H.Hojiyeva[11], M.Xudayorova[9], R.J.Nabiyevaning[7] ishlarida atroflicha tasnif qilingan. Jumladan, Malika Xudayorova o'z tadqiqotida o'zbek tilidagi taom nomlarini leksik-semantik jihatdan tasniflab, ularning nominativ va funksional xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Olimaning ta'kidlashicha, taom nomlari oddiy predmet nomlari emas, balki xalqning madaniy xotirasini saqlovchi va milliy dunyoqarashini ifodalovchi lingvistik birliklardir. Shu jihatdan oziq-ovqat leksemalari semantik strukturasi nafaqat atash ma'nosi, balki konnotativ va madaniy semalar ham muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Shum bola qissasidagi oziq-ovqat nomlarini o'rganishda leksik-semantik, funksional hamda lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida asardagi gastronomik leksemalar matndan tanlab olinib, ularning

semantik xususiyatlari, leksik-semantik guruhlari va badiiy matndagi funksional vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, oziq-ovqat nomlarining milliy-madaniy ma'nolari, qahramon xarakterini ochish, ijtimoiy muhitni tasvirlash hamda milliy koloritni ifodalashdagi o'rni lingvokulturologik yondashuv asosida yoritildi. Tadqiqot davomida matndan tanlab olish, tasniflash va kontekstual tahlil metodlari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. So'zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag'alligini belgilashda katta o'rin tutadi. O'z va o'zlashgan qatlam leksikasini mavzuiy guruhlarga bo'lish va ularni qiyosiy o'rganish o'z qatlamda qanday sohalarga oid so'zlar saqlanib turgani, qaysi sohalarga doir leksemalar tarixan iste'moldan chiqib ketgani va ular o'rni o'zlashgan so'zlar egallaganini aniqlashga yo'l ochadi. Ayni paytda aytish joizki, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma'lumotlar so'zning mavzuiy guruhlari o'zining yaqqol ifodasini topadi. Demak, leksemalarni mavzuiy guruhlarga ajratib tadqiq etish tilning xalq hayoti bilan bog'liq tomonlarini yoritish uchun xizmat qiladi[2].

Leksika tilning boshqa sohalari nisbatan turli ichki va tashqi ta'sirlarni o'zida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarish va o'sishni aniqlashga ko'maklashadi[3]. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda "Shum bola" qissasidagi oziq-ovqat nomlarini shartli ravishda quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratamiz:

Umumiy nomlar: Ovqat, luqma, masalliq;

a) ovqatlar: obinon, shirmoy non, atala, umoch – "taom nomi", moshqovoq, moshxo'rda, ugra oshi, palov, somsa, shovla, kulcha, tariq go'ja, slogan zog'ora, jigar kabob, oqshoq bo'tqa, uvra, qovurdoq, sho'rva, mohazar, manti, yaxna, ona suti, chalpak, kalla go'shti;

b) ovqat tayyorlash mahsulotlari: guruch, go'sht, moyak, tuxum, xamir, et – "go'sht", mosh, bug'doy, tuz, xamir, yog';

c) shirinliklar: murabbo, nisholda, mum;

d) xo'l va quruq mevalar: olma, olxo'ri, qand-qurs, yong'oq, pista-bodom, qoqi, turshak, danak;

e) sabzavotlar va poliz ekinlari: sabzi, qovoq, piyoz, qovun, tarvuz, kartoshka, piyoz, lavlagi, jo'xori, qalampir;

f) sutli mahsulotlar: sut, suzma, qurt, qaymoq, qatiq;

g) ichimliklar: konyak, choy, ayron, bo'za, qimron, so'k, suv;

h) hayot uchun xavfli mahsulotlar: chilim, tamaki, nos, nasha;

i) hayvonlar yeguligi: yem-xashak.

Qurt leksemasi omonim so'z bo'ib bir qancha semantic ma'no ifodalaydi:

Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor: ko'k qurt, olma qurti ko'sak qurti, pilla qurti, yonarqurt, shilliqqurt, eshakqurt, ipak qurti. Haligacha bergan yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi (ShB, 88).

Miyasiga qurt tushmoq, miyasi aynimoq;

Tovoniga (yoki oyog'iga, paytavasiga) qurt tushmoq Bezovta bo'lib, biror narsa harakatiga tushmoq (O'TIL, IV, 291).

Asosan, asarda qurt so'zi yegulik ma'nosida qo'llanilgan: "Keyin yigirmata tuxum, bir do'ppi so'k, o'nta tuya qurtga biz ham rozi bo'ldik, kampir ham ko'ndi (ShB, 26). Bundan tashqari o'chov ma'nosini ham izohlagan: "Yaxshilab, qurtdakkina so'kishni ham eshitdim (ShB, 62), "Avval qurtdakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko'z aralash yedik (ShB, 88).

Qurt leksemasi asos bo'lgan bir qancha lug'aviy ma'no anglatgan so'zlar yasalgan: qurtava, qurtoba, qurt-qumursqa, qurtlamoq, qurtloqi, qurtqa, qurtqasoch, qurtana, qurtxona, qurtchi, qurtchilik (O'TIL, IV, 292).

Chalpak. 1) Xamirni yuqayoyib, yog'da pishiriladigan yegulik 2) O'rik, olcha va ho'l mevalar shinnisidan yoyib quritilgan shirinlik. 3) Chalpak bo'lmoq yoki chalpak-(dek) bo'lib tushmoq Yiqilib uzala tushmoq, chalqanchasiga yiqilmoq; chalqancha yotmoq. 4) Chalpak qilmoq ikkala qo'l va oyog'idan ushlab cho'ziltirib ko'tarmoq (O'TIL, VI, 715). Asarda chalpak leksemasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan: "Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib olib keldi" (ShB, 88), "Sudrab chiqqan yigitlardan to'rttasi uni chalpak qilib ko'tar dilar" (ShB, 142).

Qovoq. 1) Palak otib o'sadigan, shapaloq bargli, karnaysimon yirik sariq gulli, bir yoki ko'p yillik poliz o'simligi va uning turli shakllarda bo'ladigan yirik hosili (O'TIL, IV, 244). Asarda aynan, "Oyog'imda oporka, boshimda "namozlik" qalpoq, egnimda ustidan qayish bilan bog'langan keng hindcha to'n – abo, oshqovoq polizning go'ngqarg'a tegishidan qo'rqib o'tkazilgan qo'riqchisi kabi ahli takya xizmatini astoydil qila boshladim...(ShB, 182) tarzida uchraydi. 2) Dastmol qovoq. Hosili qozonsochiq yoki mochalka o'rnida ishlatiladigan qovoqsimon o'simlik. Oyim qovoq. Tomosha qovoq (O'TIL, IV, 244). Eshak nimaga kerak bo'ldi ekan, eshonoyilarimning bitta-yarimtasiga "eshakyemi" toshdimikan, degan xayollar bilan borib, qishloqning chorbozorchi attori "o'sma ket, sur maket, ishtonbog' ket", deb qishloqma-qishloq daydib yur adigan bir kishining eshagini bir soatga ikkita oyimqovoqqa ijaraga olib keltirdim (ShB, 76). 3) Shu o'simlikning hosili qobig'idan yasalgan idish (O'TIL, IV, 244). Sut-qaymoq bo'lsa kerak. Ikkita qovoq idish osig'liq turibdi. Ularda qatiq bo'lsa kerak (ShB, 31). O'choqda o't tutashib ketgandan keyin, kampir o'tovga kirib ikkita qovoq manak (bo'za quyiladigan idish)da bo'za keltirib qo'ydi (ShB, 36). 4) Nos qovoq. Qovoqning noksimon mayda navi. 5) Buva qovoq. Masxarabozlarning yuzga tutadigan niqobi. Qovoq kalla (yoki bosh) miyasi yo'q, aqlsiz, ahmoq. 6) Qovoq. Ko'z kosasini qoplovchi, ochilib-yopilib turadigan teri. 7) Bodom qovoq. Qovoq solmoq (yoki uyumoq) yoki qovoqni osiltirmoq Norozilik yoki xafalik ifodalab xo'mraymoq. 8) Qovog'i soliq nimadandir norozi, xafa, kayfi buzuq; ko'chma ma'noda: yog'sa-yog'guday, avzoyi buzuq, aynigan. 9) Qovog'idan qor yog'adi. juda xafa, achchig'i chiqqan, avzoyi buzuq, badjahl, xo'mraygan. 10) Qovog'ini ochmoq. Ko'zini ochmoq, qaramoq; ko'chma ma'noda chehrasini ochib qaramoq, kulib boqmoq (O'TIL, IV, 244). 11) Qovoq-dimog'. Kayfiyat, avzo. 12) Qovoq-dimog'iga qaramoq. Birovning xohishi bilan hisoblashmoq; birovning kayfiyatiga, ko'ngliga qarab ish tutmoq. 13) Qovoqdoshlar. Qovoq, qovun, tarvuz, mochalka kabi palak otib o'sadigan o'simliklar oilasi. 14) Qovoq-tumshuq: qovoq-tumshuqni osiltirmoq, qovoq solmoq. 15) Qovoqxona. Spirtli ichimliklar ichiladigan mayxona. 16) Qovoqxonachi. Qovoq xona egasi yoki sotuvchisi. 17) Qovoqcha. Qattiq po'stli qovoqlar guruhi uchun mansub sabzavot ekini. 18) Qovog'ari. Arining zaharli yirik turi (O'TIL, IV, 245). Asarda yuqoridagi semalarda kelmagan bo'lsada quyidagi semantik ma'nolarda qo'llanilgan: "Karim qori degan gazlamafurush, Yoqub qovoq degan mumfurush, Abdullaxo'ja degan bo'yoqfurush boylarni hisobga olmaganda, qolganlari bosmaxona va qandolatxona (konditerskiy) ishchilari edi" (ShB, 10). "Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi" (12). "Bir paqirga ikkita qovoq solgan zog'orani olib, ovqat bozorga ketdik" (ShB, 27). "Kechki ovqatga xo'jayin shirqovoq qildirgan ekan, olib chiqib oldimizga qo'ydi va qovoqning mo'jiza ekanini maqtab-maqtab, buni ichgan kishi do'zax betini ko'rmasligi to'g'risida gapirib ketdi" (ShB, 110). "Qo'ltig'imdagi bedanani olib

Turobboyga uzatdim. – Ma, o'rtoq, mana buni to'rqovoqqa tashlab qo'y, juda o'tkir sayroqi chiqadi" (ShB, 150).

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijasida Shum bola qissasida qo'llangan oziq-ovqat nomlari badiiy matnning muhim leksik qatlamlaridan birini tashkil etishi aniqlandi. Asarda uchraydigan "mosh", "moshkichiri", "moshxo'rda", "qurt", "chalpak", "qovoq" kabi gastronomik leksemalar nafaqat maishiy predmet nomlari sifatida, balki muayyan semantik, madaniy va badiiy-estetik yuklamaga ega til birliklari sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlil jarayonida oziq-ovqat nomlarining leksik-semantik xususiyatlari ochib berilib, ular o'zining semantik tarkibi va funksional vazifasiga ko'ra alohida leksik-semantik guruhni tashkil etishi kuzatildi. Xususan, "mosh", "moshkichiri", "moshxo'rda" leksemalari xalqning kundalik ovqatlanish madaniyati, oddiy turmush tarzi va iqtisodiy sharoitini ifodalovchi birliklar sifatida qo'llangan bo'lsa, "qurt" leksemasida milliylik, tabiiylik va qadimiy turmush an'analariga xos semantik belgilar mujassamlashgani

aniqlandi. Shuningdek, "chalpak" va "qovoq" kabi birliklar ham xalqona turmush manzaralarini yaratishda muhim badiiy vosita vazifasini bajargani kuzatildi.

Oziq-ovqat nomlari qissada qahramon xarakterini ochish, voqealar sodir bo'layotgan muhitni tabiiy tasvirlash hamda milliy koloritni kuchaytirishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Muallif tomonidan gastronomik birliklarning tabiiy va o'rinli qo'llanishi asarning realizmini kuchaytirgan hamda xalqona ruhni yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, Shum bola qissasidagi oziq-ovqat nomlarini leksik-semantik jihatdan o'rganish o'zbek badiiy matni tilining semantik imkoniyatlarini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari gastronomik leksikaning o'zbek tilidagi funksional va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda, shuningdek, badiiy matn lingvistikasi hamda semantika yo'nalishidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдушукуров Б. Қисаси Рабғузий лексикаси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 248 б.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: ФАН, 1985. – 121 б.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: ФАН, 1983. – 183 б.
4. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Ilm-ziyo zakovat, 2021. – 189 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI tomlik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 456 b.
6. Митричева Т.И. Структурно-семантическая соотносимость наименований пищи в русском и французском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 27 с.
7. Nabiyeva R.J. Oziq-ovqat nomlari yangi o'zlashmalarining genetik, semantik va leksikografik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Termiz, 2026. – 26 b.
8. Савельева О.Г. Концепт «еда» как фрагмент языковой картины мира: лексико-семантический и когнитивно-прагматический аспекты. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 26 с.
9. Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 22.
10. Шхумишхова А.Р. Номинации понятийной сферы «пища»: Структурно-семантический и функциональный аспекты. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2011. – 26 с.
11. Hojiyeva N.H. O'zbek tilida mevachilik leksikasi. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. ... diss. – Buxoro, 2023. – 139 b.
12. Болотоева О.Л. Исконные и заимствованные наименования продуктов питания в корякском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 21 с.